

Muloqot natijalari hujjatlarda mustahkamlandi



Islomobodagi muzokaralar yakunida ikki tomonlama hujjatlarni imzolash marosimi bo'ldi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev va Bosh vazir Imron Xon O'zbekiston Respublikasi bilan Pokiston Islom Respublikasi o'rtasida strategik sheriklikning kelgusi qadamlari to'g'risidagi Qo'shma deklaratsiyani imzoladilar.

Shuningdek, hukumatlar va idoralar o'rtasida imtiyozli savdo to'g'risida, atrof-muhitni asrash, ziyorat turizmi, temir yo'l sohalaridagi hamkorlik to'g'risida kelishuvlar, Surxondaryo viloyati bilan Xayber-Paxtunxva provinsiyasi, Toshkent shahri bilan Islomobod shahri o'rtasida shartnomalar kabi 10 ga yaqin hujjat imzolandi.

Bundan tashqari, tashrif arafasida o'tgan biznes forumda 800 million dollarlik qo'shma savdo va investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo'yicha kelishuvlarga erishilgan.



Manba